



Innovatsion yondashuv bo'lajak pedagoglar intellektual kompetentligini rivojlantirishning muhim omili

O'rinova Feruza O'ljayevna –

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrasi professori,
pedagogika fanlari nomzodi

E-mail: furinova3@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0693-0706>

Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada innovatsion yondashuvga ko'ra bo'lajak pedagoglarning intellektual kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ifoda etilgan. Pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali pedagoglarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish usullari muhokama etilgan. Intellektual kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiya va metodlar misollar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: Innovatsion yondashuv, pedagog, texnologiya, kreativlik, intellektual kompetentlik. innovatsion yondashuv, intellektual kompetentlik.

Инновационный подход является важным фактором в развитии интеллектуальной компетентности будущих учителей

Аннотация. В статье представлены теоретические и практические аспекты развития интеллектуальной компетентности будущих учителей в соответствии с инновационным подходом. Рассматриваются методы повышения знаний, навыков и квалификации учителей посредством использования инновационных технологий в педагогической деятельности. Технологии и методы, способствующие развитию интеллектуальной компетентности, подкреплены примерами.

Ключевые слова: инновационный подход, учитель, технология, креативность, интеллектуальная компетентность.

Innovative approach is an important factor in developing intellectual competence of future teachers

Annotation. The article presents theoretical and practical aspects of developing intellectual competence of future teachers according to an innovative approach. Methods of improving the knowledge, skills and qualifications of teachers through the use of innovative technologies in pedagogical activities are discussed. Technologies and methods that serve the development of intellectual competence are substantiated by examples.

Keywords: innovative approach, teacher, technology, creativity, intellectual competence. innovative approach, intellectual competence.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim muhitida tub islohotlarning amalga oshirilishi tizimda yuksalish sur'atlarini namoyon etadi. Bunda esa pedagoglarning kreativ fikrlash qobiliyati, faoliyatgini kompetensiyaviy qirralar bilan boyitilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bo'lajak pedagoglarning intellektual kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Pedagogning kasbiy salohiyati, layoqati va mahorati nafaqat shaxsiy, balki umumiy ma'noda barcha uchun zarur va muhim bo'lgan bilimlarning nazariy va amaliy jihatdan boyitilishiga hissa qo'shadi. Qolaversa, ushbu talab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmonida ham o'z aksini topgani bilan ahamiyatlidir. Farmonda:

- uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;
- ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish;
- bo'lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish kabi bandlarning kiritilganligi pedagoglarning intellektual kompetentligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi, deyishimiz mumkin.

Bu o'rinda intellektual **kompetentlik** – pedagog shaxsining yangi bilimlarni egallashi, undan foydalana olishi, tadqiq eta olishi hamda amaliyotga joriy etish qobiliyatini anglatadi. Ushbu muhim masala o'zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

- tanqidiy fikrlash
- analitik yondashuv
- kreativlik
- refleksiv faoliyat
- axborot bilan ishlash ko'nikmalari.

Ushbu jihatlarning keng doirada amalga oshishi maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning, maktablarda o'quvchilarning, oliy ta'lim muassasalarida esa talabalarning faolligini oshirishga, mustaqil ta'limni rivojlantirishga, muammoli vaziyatlarda

tanqidiy fikrlash qobiliyatining o'sishiga, bilimlarning chuqur o'zlashtirilishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Har bir faoliyatga, jarayonga zamonaviy nigoh bilan qarash, tahlil qilish, muqobilini tanlash va undan oqilona foydalanish pedagogning kasbiy kompetensiyasini namoyon etgan holda ta'lim muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy va yangicha fikrlashni o'zda mujassam etgan innovatsion yondashuv ta'lim taraqqiyoting ajralmas qismi sifatida pedagog shaxsidan izlanuvchanlikni, o'ziga xooslikni, mukammallikni talab etadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvga asoslangan intellektual fikrlash qobiliyatining mavjudligi pedagog uchun ta'lim oluvchilarni birdek jalb etish va ularni faollikka chorlash imkonini ham beradi, deyishimiz mumkin. Shu nuqtayi nazarga ko'ra, o'z davrida ta'limiy faoliyatga zamonaviylik nafasini berishga nazariy va amaliy hissa qo'shishni istagan, bu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan: John Dewey talimda "learning by doing" (amal orqali o'rganish) g'oyasini ilgari surgan holda innovatsion ta'limning asoschilaridan biri deyish mumkin. Qolaversa, Lev Vygotsky tomonidan yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi orqali o'quv jarayoniga interaktiv va hamkorlikka asoslangan yondashuvni olib kirganligi, Jean Piagetning bolalar tafakkuri rivojlanish bosqichlarini o'rganib, innovatsion o'qitish metodlariga asos, Maria Montessorining mustaqil o'rganishga asoslangan innovatsion ta'lim tizimini yaratganini ta'kidlash joiz.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiya vakillaridan Jerome Bruner tomonidan kashfiyot orqali o'rganish (discovery learning) metodi ishlab chiqilganligi, Howard Gardner tomonidan ko'p qirrali intellekt nazariyasi bilan individual yondashuv kuchaytirilganligi, Benjamin Bloom tomonidan o'quv maqsadlarini tasniflash (Bloom taksonomiyasi) orqali innovatsion baholash tizimi yaratilganligi, Paulo Freire–tanqidiy fikrlashga asoslangan, dialogik talim modelining taklif etilgani bugungi ta'lim rivoji uchun muhim qadamlardan biri, ta'bir joiz bo'lsa ta'lim sifatida o'sishga yordam berayotgan muhim bosqichlardan deb qarash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Intellektual kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasiga quyidagilarga misollar keltirish mumkin:

1. **TRIZ** – muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyatlarni qo'yish va unga mustaqil ravishda yechim topish qobiliyatiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, tahlil qilish qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

2. **Loyihaviy faoliyat** (Proyeject-based learning). Ushbu loyiha asosida ishlash orqali bilimlarni real tarzda qo'llash, jamoada ishlash, ijtimoiylashuvni rivojlantirishga erishish mumkin.

3. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish** (AKT). Zamonaviy raqamli vositalarni qo'llash o'z o'rnida axborotlar bilish ishlash, zarur ma'lumotni topish, tahlil qilish, qayta ishlash va foydalanish, interaktiv ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. Ta'lim jarayonining yanada qiziqarli, samarali, tushunarli va ko'rgazmali qilishga turtki beradi.

4. **Interfaol metodlar**: "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "BBB texnologiyasi"ni qo'llash talabalarning (o'quvchilarning) faol fikrlashga undashga, muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu o'rinda pedagoglarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladigan omillarni ham aytib o'tish joiz. Demak, tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha:

- uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish;
- innovatsion muhit;

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;

- motivatsiya va qiziqishning mavjudligi o'z o'rnida innovatsion yondashuv bolajak pedagoglar intellektual kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Unutmaslik kerakki, ta'lim jarayoniga innovatsiya hamda innovatsion faoliyatning kirib kelishi, ushbu omilning an'anaviy ta'lim yondashuviga binoan o'zaro integratsiyalashuvi iqtisodiy o'qish, kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, sohalar bo'yicha barqarorlikni ta'minlash, yangiliklarning shiddatli ravishda kirib kelishi va o'zlashtirishiga amaliy tarzda yechim bo'la oladi. Demak, tarbiyachi (pedagog)ning o'z faoliyatidagi innovatsion yondashuvlari uning:

Kvalisetrrik yondashuvi;

Aksiologik yondashuvi;

Akmeologik yondashuvi;

Kreativ yondashuvchilarida namoyon bo'lishi shart. Binobarin ushbu yondashuvlar oliy nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasi amaliyotida mustaqil va ijodiy qo'llay olish layoqati bo'lgan **Kompetensiyani** hamda aniq vaziyatda kasbiy layoqatning namoyon bo'lishini anglatuvchi **kompetentlikni** o'zida mujassam etadi. Tadqiqotlar, izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion metod va texnologiyalarni o'z o'rnida ijodiy hamda ijobiy qo'llash bo'lajak pedagoglarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga hamda kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning barobarida, ta'lim muhitida hamda ta'lim faoliyatida zamonaviy metodlardan foydalanilishi ta'lim sifatini yaxshilashga ham sezilarli darajada hissa qo'shadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarning intellektual kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuv muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish mumkin. Bu esa kelajak avlodni sifatli ta'lim bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Hasanov Sh. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2022.
3. Ivanova E. Innovatsion ta'lim metodlari. – Moskva: Prosveshchenie, 2020.
4. Johnson L. Modern Teaching Strategies. – New York: Springer, 2021.
5. Azizov T. Zamonaviy texnologiyalar va maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar // Bolalar ta'limi. – 2023. – B. 55–61.
6. Shukurov A. Milliy qadriyatlarni texnologiyalar yordamida bolalar tarbiyasiga singdirish // O'zbekiston pedagogika jurnali. – 2021.
7. Toshpo'latov S. Texnologiyalar va tarbiya: milliy qadriyatlar va an'analarni saqlash // Ta'limda innovatsiyalar. – 2024.